TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI BO'YICHA

BUYRUQ

«17» may 2022 yil № 180/AF

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "Tibbiyot xodimlarining odob-axloq Kodeksini tasdiqlash haqida" 2022-yil 24-martdagi 88-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash to'grisida

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2022-yil 14-fevraldagi 14-son tezkor yig'ilishi bayonining 14-bandi hamda 2022-yil 24-martdagi 88-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. **Barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari hamda fakultet dekanlariga:**

1.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2022-yil 14-fevraldagi 14-son tezkor yig'ilishi bayonining 14-bandi hamda 2022-yil 24-martdagi 88-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin;

1.2. Vazirlikning mazkur buyrug'i bilan Tibbiyot xodimlarining yangilangan odob-axloq kodeksi (keyingi o'rinlarda - "Kodeks" deb yuritiladi) 1-ilovaga muvofiq, Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi barcha korxona-tashkilotlar, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlar hamda talabalarning odob-axloq Qoidalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin;

1.3. Institutning barcha xodimlari va talabalari mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Kodeks talablariga qat'iy rioya qilishlari ta'minlansin va ijrosi nazoratga olinsin.

2. **Institut Kasaba uyushmasi raisi (A.Xasanov), Davolash ishlari bo'yicha prorektor (S.Axmedov), Huquqshunos (lavozimiga ko'ra), Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i (F.Tojiyev) hamda barcha fakultet dekanlariga:**

2.1 Vazirlik buyrug'i 1-ilovasi bilan tasdiqlangan mazkur Kodeks asosida institut faoliyatidan kelib chiqqan holda ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilsin va o'rnatilgan tartibda barcha xodim va talabalarga tanishtirilishi ta'minlansin;

2.2 Buyruq talablarini buzgan rahbar va mas'ul xodimlarga qonunchilikda o'rnatilgan tartibda jazo choralari qo'llanilishi ko'rsatib o'tilsin;

2.3 **Besh kun muddatda** institut faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda, Kodeks asosida institut xodimlari va shifokorlari uchun majburiy bo'lgan xodimlarning idoraviy odob-axloq qoidalari ishlab chiqilsin va tasdiqlansin;

2.4 Institut Ichki mehnat tartib-qoidalari va boshqa idoraviy hujjatlari ushbu buyruqqa muvofiqlashtirilsin.

3. **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (R.Yunusov), Institut Kasaba uyushmasi raisi (A.Xasanov), Kadrlar bo'limi boshlig'i (N.Avlixanova) hamda barcha fakultet dekanlariga:**

3.1 Vazirlik buyrug'i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi barcha korxona-tashqilotlar, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlar hamda talabalarning odob-axloq qoidalari asosida institut xodim va talabalarining odob-axloq qoidalari ishlab chiqilsin va ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

3.2 Tegishli mutaxassislarni jalb etgan holda, xodimlar va talabalar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

4. Belgilab qo'yilsinki, xodimlarning tasdiqlanadigan idoraviy odob-axloq qoidasi mazkur Kodeks talablariga zid bo'lishi yoki unda belgilangan normalardan past darajadagi talablarni nazarda tutishi mumkin emas.

5. Sog'liqni saqlash vazirligining "Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi barcha boshqaruv apparati, tibbiyot davolash-profilaktika hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muasassalari, tashkilot, korxonalar xodim va talabalarning tibbiy deontologiyasi va madaniyati to'grisida" 2016-yil 20-yanvardagi 34-son buyrug'i hamda Sog'liqni saqlash vazirligining "Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash haqida" 2019-yil 17-iyundagi 161-son buyrug'i o'z kuchuni yo'qotgan deb belgilansin.

6. **Ushbu buyruq ijrosining nazorati va javobgarlik Institut Kasaba uyushmasi raisi (A.Xasanov), Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (R.Yunusov) hamda Davolash ishlari bo'yicha prorektor (S.Axmedov)lar zimmasiga yuklatilsin.**

Rektor **N.Xaydarov**

Toshkent davlat stomatologiya instituti rektorining
2022-yil 17 -maydagi
130/AF -son buyrug'iga ilova

Toshkent davlat stomatologiya institutida faoliyat yuritayotgan xodimlar hamda talabalarning odob-axloq qoidalari

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Qoidaning maqsadi, Toshkent davlat stomatologiya instituti (keyingi o'rinlarda- Institut) dagi barcha xodimlar va talabalari uchun namunali kiyinish meyorlarini belgilash, shuningdek, deontologik nuqtai nazardan sog'lom ma'naviy, ijtimoiy-psixologik muhit barqarorligini ta'minlash, kasbga nisbatan o'zaro hurmat munosabatlarini mustahkamlashdan iborat.

1.2. Ushbu Qoida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 62-son va "Oliy ta'lim Institutlariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarorlari talablariga hamda Sog'liqni saqlash vazirining 2022-yil 24-martdagi 88-son buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. Ushbu Qoidaning talablari barcha professor-o'qituvchi, rahbar-xodimlar (jumladan, kabinet mudirlari, laborantlar, kotibalar, bo'lim xodimlari) hamda talabalar uchun majburiy hisoblanadi.

1.4. Qoidada belgilangan talablar institut ichki meyoriy hujjatlariga kiritilishi shart.

II-bob. Institut xodimlari va talabalarining muomalasi, o'zini tutishi va kiyinishiga qo'yiladigan talablar:

2.1. Xodimlar uchun umum e'tirof etilgan axloqiy qoidalarga muvofiq jiddiy, ishchan va didli, ziyoli shaxs qiyofasini shakllantirish maqsadida korporativ kiyinish uslubi talablariga amal qilinadi.

2.2. Institutda rahbar-xodimlar, professor-o'qituvchilar, talabalar (bo'lajak pedagog, shifokor) kasbiga mos holda kiyinishlari talab etiladi. Xodim o'zini tutish san'ati, muloqot madaniyati va kasbdoshlar o'rtasida hurmat, mehr-muruvvat ko'rsatishi shart. Bunda o'qituvchi va murabbiylar talabalarga namuna ko'rsatishlari lozim.

2.3. Institut jamoasi (bundan keyin- jamoa) avvalo yuksak axloqiy

fazilatlarga ega bo'lishi nuqtai nazaridan:

a) jamoada xodimlarning ma'muriyat (rektor, prorektor, dekan, kafedra mudiri, bo'lim, boshqarma boshlig'i hamda ularga tenglashtirilgan rahbar xodimlar)ga nisbatan hurmatda bo'lishi;

b) jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatda tanqidiy fikrlarni to'g'ri va asosli qabul qilishi, tavsiyaviy xarakterdagi tanqidiy fikrlardan xulosalar chiqarish, tanqid qilayotgan xodimning zarur va kerakli tavsiyalariga rioya qilish;

c) jamoa a'zosining so'z erkinligi ta'minlanganligi nuqtai nazaridan, birovga tuhmat qilish, uni haqorat qilish, o'zaro munosabatlarda behayo so'zlardan foydalanish huquqini kafolatlamaydi;

d) jamoa murojaati madaniyat darajasida bo'lishi o'zaro munosabatni mustahkamlab beradi. Rasmiy murojaatlar rahbarga, yetakchi mutaxassisga, ta'lim beruvchi ustozga, murojaat etilayotganda belgilangan tartib asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Norasmiy murojaatlarda ham asosan ishonchlilik, do'stona va samimiy munosabat ustuvor ahamiyatga ega;

e) jamoa a'zolari oliy ta'lim Institutsi hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari kerak. Bir-biriga duch kelganda albatta salomlashishlari, bunda: talabalar professor-o'qituvchilar va xodimlarga, erkaklar xotin-qizlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi. Bundan qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, yoshi katta shaxslar birinchi bo'lib qo'l uzatganidan keyingina unga javoban qo'l uzatish mumkin.

2.4. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki institut ichki muammolariga taalluqli masalalarni Internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish ta'qiqlanadi. Kompyuterlarda institutga tegishli bo'lmagan jumladan, institut obro'siga putur yetkazuvchi yolg'on ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irkiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish qat'iyan man etiladi.

2.5. Institut hududida, binolarda, yo'laklarda, auditoriyada sigaret chekish qat'iyan ta'qiqlanadi.

2.6. Alkogolli ichimliklar (pivo, vino va boshqalar), giyohvandlik moddalari iste'mol qilish, shuningdek shu holatda bo'lish man qilinadi.

2.7. Bezorilik qilish, uyatli so'zlar aytish, so'kinish, ig'vo so'zlarni tarqatish, o'zgalarga shantaj orqali bosim o'tkazish, shilqimlik qilish, odamlar osoyishtaligiga putur yetkazadigan, ish va o'quv jarayoning me'yoriy davom etishiga xalaqit beradigan hatti-harakatlar sodir etish ta'qiqlanadi.

2.8. Talabalar bir-birlari bilan o'zaro hurmat va dars jarayonida samimiy munosabatda bo'lishlari lozim, biror talaba boshqa bir talabaga yakka yoki guruh bo'lib qo'l ko'tarishi, tan jarohati yetkazishi yoki sha'nini qo'pol ravishda yerga

uruvchi haqoratli so'zlarni aytishi, hujjatlarni soxtalashtirish, yolg'ondan foydalanishi orqali va boshqa egri yo'llar bilan imtihonga o'z o'rniga boshqalarni kiritishi, boshqa talaba va abiturientlar o'rniga imtihonga kirishi qat'iyan ta'qiqlanadi. Bu kabi holatlarni sodir qilgan talabalar belgilangan tartibda va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim Institutlariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 20-iyun dagi 393-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talabalari asosida ogohlantirishsiz talabalar safidan chetlatiladi.

2.9. Institut hududida diniy ibodat marosimlarini amalga oshirish hamda yakka va jamoa bo'lib nomoz o'qishlari ta'qiqlanadi.

2.10. Institut hududida karta bilan o'ynaladigan va boshqa shu kabi ta'lim dargohida man qilingan o'yinlar o'ynash ta'qiqlanadi.

2.11. Auditoriyada uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish, zallarda telefonlardan foydalanmaslik va baland ovozda shovqin solmaslik, dars vaqtida gaplashmaslik, jihozlarga madaniy munosabatda bo'lish, partalarga yozmaslik, qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik, ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik, umumiy ovqatlanish joylarida taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish, tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga hurmat ko'rsatish, ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik, umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilinishi lozim.

2.12. Axborot-resurs markazi xodimlari bilan hushmuomalada bo'lish, kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik, qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik, kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilinishi talab qilinadi.

2.13. Talabalar turar joylarida mavjud jihozlarni asrash, ularga zarar yetkazmaslik, elektr-energiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanish, sanitariya va gigiyena, xonalardan foydalanish qoidalariga amal qilish, "Talabalar turar joyi Qoidasi" va "Ichki tartib qoidalari"ga qat'iy rioya qilinishi shart.

2.14. Tashqi ko'rinish - insonning kim va qanday ekanligi xaqida dastlabki ma'lumotni beruvchi, uning turmush tarzi va hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan faoliyati ekanligini inobatga olgan holda institut xodimlari va talabalari kiyinish madaniyatiga rioya etishi lozim. Xodimlar va talabalarining institut hududida diqqatni tortadigan, ya'ni haddan tashqari tor yoki ochiq kiyimda, g'ayrioddiy soch turmaklari bilan ortiqcha bo'yangan holda, sport kiyimlarida kelishi taqiqlanadi.

2.15. Institutga orasta bo'lib kelish talab etiladi. Tanaga bodiard uslubida turli suratlar chizdirish, tatuaj tushirish va pirsinglar taqish odob-axloq qoidalariga

zid hisoblanadi. Ta'lim Institutsiga bu holda kelish man etiladi.

2.16. O'quv semestrlari vaqtida talabalarning rektor ruxsatisiz chet el davlatlariga chiqish ta'qiqlanadi, ruxsatsiz chet elga chiqib ketgan talabalar talabalar safidan chetlatiladi.

III-боб. Institut xodimlari va talabalarning muomalasi, kiyinish madaniyat qoidalari:

3.1. Institutda faoliyat ko'rsatayotgan va ta'lim olayotgan ayol xodim va talabalarga qo'yiladigan talablar:

3.1.1. Xodimlar kasbdoshlari o'rtasida ularga hurmat va mehr-muruvvat ko'rsatishlari kerak.

3.1.2. Ustki kiyimning turlari xalat yoki tibbiy maxsus kiyim oq rangli (bo'limlar orasidagi boshqa rangli maxsus kiyim ichki tartibda tasdiqlanishi lozim) tabiiy matodan, oson va tez tozalanadigan, qulay kiyiladigan, tor bo'lmagan, bichimi ortiqcha bezaklardan xoli, diqqatni tortmaydigan, klassik shakldagi kostyum yoki xalatdan iborat bo'lishi muhim.

3.1.3. Kostyum, yubka va ko'ylaklar sidirg'a yoki chiziqli klassik matolardan, bluzka esa oqish rangda bo'lishi lozim. Yubkaning uzunligi tizzadan yuqori bo'lmasligi kerak.

3.1.4. Aksessuarlar (sumka, ko'zoynak va bezaklar) ham korporativ uslubga mos holda tanlanishi, ortiqcha bezaklardan xoli bo'lishi, zargarlik taqinchoqlari (zirak, uzuk va boshkalar) ko'zga yaqqol tashlanmaydigan tarzda taqilishi lozim.

3.1.5. Sochlar orasta yig'ilgan, o'rilgan yoki turmaklangan, ortiqcha aksessuarlardan xoli va ro'mollar yuz ochiq holda o'ralgan bo'lishi kerak.

3.1.6. Oq xalat va unga mos bosh kiyim toza va maxsus bo'lishi, xalat tizzadan pastda turishi, yengi uzun (faslga qarab), klassik uslubda, **chet el va turli xil firma yorliqlaridan xoli** bo'lishi lozim.

3.1.7. Oyoq kiyim yurganda ortiqcha ovoz chiqarmaydigan, qulay va oson tozalanadigan (dezenfeksiya usullaridan foydalanishga qulay) bo'lishi zarur.

3.1.8. Xodim va talabalarning qo'llari toza, ortiqcha zeb berilmagan, tirnoqlar kalta olingan bo'lishi kerak.

3.2. Institutda faoliyat ko'rsatayotgan va ta'lim olayotgan erkak xodim va talabalariga qo'yiladigan talablar:

3.2.1. Xodimlar kasbdoshlari o'rtasida, shuningdek, bemorlar bilan muloqot jarayonida ularga hurmat va mehr-muruvvat ko'rsatishlari kerak.

3.2.2. Ustki kiyimning turlari bichimi klassik shakldagi kostyum, shim,

ko'ylak, galstukdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

3.2.3. Kostyum va shimlar sidirg'a yoki chiziqli matolardan, ko'ylaklar esa ochiq ranglarda bo'lishi lozim.

3.2.4. Galstukning kengligi o'rtacha, uzunligi kamargacha bo'lib, rangi kostyum va ko'ylakka mos tanlanishi kerak.

3.2.5. Talaba yigitlar talabaga mos o'quv qurollari solib yurish mumkin bo'lgan, rangi ustki kiyimga yarashimli sumka-portfellar tutishlari lozim.

3.2.6. Oq xalat va shunga mos bosh kiyim toza, tekis, tizzadan pastda turishi, yengi uzun (faslga qarab), klassik uslubda, **chet el va turli xil firma yorliqlaridan xoli** bo'lishi lozim.

3.2.7. Sochlar tartibga keltirilgan, kalta kesilgan, soqol mo'ylov olingan bo'lishi lozim.

IV-bob. Institut xodim va talabalarning kiyinishida man qilinadigan xolatlar:

4.1. Ayol xodima va talaba qizlar uchun:

4.1.1. Uzunligi tizzadan kalta bo'lgan, shaffof va yaltirok matolardan tikilgan, bichimi tor, ko'krak, qorin, yelka qismi ochik bluzka va ko'ylaklar kiyish;

4.1.2. Bezak sifatida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvlar, turli reklama ma'lumotlari, davlat ramzlari, zo'ravonlik, fahsh elementlarini targ'ib qiluvchi rasmlar va yozuvlar aks etgan, rusum sifatida «yirtilgan», «titilgan» va jinsi matosidan tikilgan kiyimlarda yurish;

4.1.3. Shuningdek, institutga diniy va ibodat liboslarida kelish;

4.1.4. Institut hududida sport kiyimlari, kalta shim va krossovkalarda yurish (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so'ng talabalar turar joyi binosi, sport maydonchalaridan tashqari);

4.1.5. O'quv anjomlarini ro'zg'or va xarid uchun mo'ljallangan paket-xaltalarda olib yurish;

4.1.6. Quloq va barmoqlardan tashkari tananing turli qismlariga zirak yoki metall buyumlar taqib yurish;

4.1.7. Oq xalat va kiyimlarda turli xil chet el va boshqa firma yorliqlari bo'lishi taqiqlanadi.

4.2. Erkak xodim va talaba yigitlar uchun:

4.2.1. Bichimi tor, yaltiroq, badanga yopishib turadigan hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvlar, turli reklama ma'lumotlari, davlat

ramzlari, zo‘ravonlik, fahsh elementlarini targ‘ib qiluvchi rasmlar va yozuvlar aks etgan, rusum sifatida “yirtilgan”, “titshtgan” va djinsi matosidan tikilgan kiyimlarda yurish;

4.2.2. Institut hududida sport kiyimlari, kalta shim va krossovkalarda yurish (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so‘ng talabalar turar joyi binosi, sport majmuasidan tashqari);

4.2.3. O‘quv anjomlarni ro‘zg‘or va xarid uchun mo‘ljallangan paket-xaltalarda olib yurish;

4.2.4. Institutda faoliyat yuritadigan xodimlarning umumiy tashqi ko‘rinishi (soqol, soch), terining ko‘rinadigan qismlarida turli tasvirlarsiz, orasta va tartibli bo‘lishi shart.

V-bob. Yakunlovchi qoidalar:

5.1 Mazkur qoidalar buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5.2 Ushbu Qoidalarni buzgan xodim va talabalarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 62-son va “Oliy ta’lim Institutlariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarorlari talablari hamda Sog’liqni saqlash vazirining 2022-yil 24-martdagi 88-son buyrug’iga muvofiq quyidagicha intizomiy jazo choralari qo’llaniladi:

a) Odob-axloq qoidalarini buzgan xodimlarga qoida buzish darajasiga qarab 1-safar uchun Ogohlantirish, 2-safar uchun Xayfsan, 3-safar takrorlansa amaldagi mehnat shatnomasini bekor qilinadi;

b) Ushbu Odob-axloq qoidalarini buzgan talabalar ham qoida buzish darajasiga qarab 1-safar uchun Ogohlantirish, 2-safar uchun Xayfsan, 3-safar takrorlansa talabalar safidan chetlatish. Qoidalar qo’pol ravishda buzilgan taqdirda ohohlantirishsiz talabalar safidan chetlatilishi ham mumkin.